

QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-may*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75)221-44-28**

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 6505 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6487 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 8715,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 107,0 % ga o'sish ta'minlandi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 402,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 101,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7154,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1158,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	8 715,9	107,0
Qarshi sh.	2 585,3	107,4
Shahrisabz sh.	647,1	107,9
G'uzor	345,2	110,5
Dehqonobod	261,9	105,2
Qamashi	589,3	105,9
Qarshi	326,4	105,0
Koson	681,0	107,5
Kitob	434,4	107,8
Mirishkor	284,6	105,4
Muborak	225,4	103,8
Nishon	317,2	105,5
Kasbi	309,4	103,8
Ko'kdala	276,9	110,2
Chiroqchi	717,7	105,7
Shahrisabiz	294,1	115,1
Yakkabog'	420,3	105,2


2024- yilning yanvar-may oylarida 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (115,1 %), G'uzor (110,5 %), Ko'kdala (110,2 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-may)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ni tashkil qildi.

2023- yil va 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-may oylarida o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 29,7 % bilan 2585,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,6 % bilan 225,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-may oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 7154,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 7,1% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,1 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 101,3 % ga ko'paydi va 402,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muborak (99,5 %), Nishon va Mirishkor (99,2 %), Kasbi va Qamashi (99,0 %), Dehqonobod (98,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumani (16,7 %), Qarshi shahri (7,8 %), Ko'kdala (7,4 %) va Koson (5,8 %) tumanlarida kuzatildi.

4,6 %

95,4 %




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so’mda*




2024- yilning yanvar-may oylari holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2442,2 ming. so‘mni (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 104,7 %) tashkil etdi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-may), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	1 158,8	109,0
Qarshi sh.	111,3	131,6
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	37,2	121,7
G'uzor	67,9	107,3
Dehqonobod	35,7	106,7
Qamashi	80,1	108,5
Qarshi	21,0	108,5
Koson	52,7	107,4
Kitob	65,5	109,4
Mirishkor	10,2	108,2
Muborak	52,7	107,4
Nishon	64,0	106,9
Kasbi	32,0	107,9
Ko'kdala	106,2	101,4
Chiroqchi	328,5	107,3
Shahrisabz	35,4	103,8
Yakkabog'	58,3	104,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-may)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-may)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1158,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 109,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 498,3 mlrd. so'mni (109,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 660,5 mlrd so'mni tashkil etdi (108,2 %).













2024- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 498,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (276,5 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 276,5 mlrd. so'm  56,6 %	Non va non mahsulotlari 77,2 mlrd. so'm  15,5 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 21,9 mlrd. so'm  4,4 %
Tovuq go'shti 33,4 mlrd. so'm  6,7 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 13,0 mlrd. so'm  2,6 %	Tuxum 13,0 mlrd. so'm  2,6 %
Ziravorlar 25,4 mlrd. so'm  5,1 %	Sut va sut mahsulotlari 14,9 mlrd. so'm  3,0 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 4,9 mlrd. so'm  1,0 %
Tuzlamalar 6,6 mlrd. so'm  0,2 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 2,0 mlrd. so'm  0,4 %	Nooziq-ovqat tovarlar 9,5 mlrd. so'm 1,9 %

2024- yilning yanvar-may oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 660,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 453,1 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 129,5 mlrd. so'mni, otlar – 27,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 2,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>290,5 mlrd. so'm</p>  <p>44,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>125,5 mlrd. so'm</p>  <p>19,0 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>37,0 mlrd. so'm</p>  <p>5,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>102,4 mlrd. so'm</p>  <p>15,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>27,1 mlrd. so'm</p>  <p>4,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>75,3 mlrd. so'm</p>  <p>11,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>2,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1448 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1446 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	256,5	106,7
Qarshi sh.	91,6	104,6
Shahrisabz sh. <i>tumanlar:</i>	18,8	105,0
G'uzor	10,9	103,2
Dehqonobod	5,5	103,9
Qamashi	5,4	104,3
Qarshi	13,2	103,8
Koson	9,7	104,4
Kitob	23,6	104,7
Mirishkor	3,4	105,3
Muborak	15,1	161,8
Nishon	24,8	104,1
Kasbi	5,5	105,3
Ko'kdala	4,6	105,2
Chiroqchi	9,6	104,5
Shahrisabz	6,5	104,2
Yakkabog'	8,4	104,7

2024- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 256,5 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	1 183,0	100,0
Qarshi sh.	1 016,0	85,9
Shahrisabz sh.	4,1	0,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1,4	0,1
Dehqonobod	1,9	0,2
Qamashi	0,6	0,1
Qarshi	102,3	8,6
Koson	4,0	0,3
Kitob	9,3	0,8
Mirishkor	3,2	0,3
Muborak	2,6	0,2
Nishon	3,0	0,3
Kasbi	11,8	1,0
Ko'kdala	1,1	0,1
Chiroqchi	12,3	1,0
Shahrisabz	0,3	0,0
Yakkabog'	0,9	0,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (1016,0 mlrd. so'm), Qarshi va (102,3 mlrd. so'm) Kasbi tumanlari (11,8 mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (4,1 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-may oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1183,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 159,8 foizga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 547,4 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 2,2 foizga ko'paydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektлари savdo hajmi – 635,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 3,1 m.) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2546,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda 2254,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,5 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2134 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2126 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori hajm ega yirik korxonalar Qarshi shahri (202,4 mlrd. so‘m), Qamashi (30,5 mlrd. so‘m), Kasbi (29,9 mlrd. so‘m) va Qarshi tumanlarida (17,5 mlrd. so‘m) qayd etildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha	2 546,8	109,3
Qarshi sh.	1 236,9	111,6
Shahrisabz sh.	255,2	112,1
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	73,9	108,5
Dehqonobod	14,2	106,2
Qamashi	128,0	142,8
Qarshi	206,6	101,0
Koson	138,9	111,8
Kitob	132,8	108,2
Mirishkor	34,5	106,8
Muborak	44,5	102,3
Nishon	25,1	105,7
Kasbi	38,5	51,3
Ko‘kdala	5,9	108,1
Chiroqchi	58,3	108,1
Shahrisabz	47,7	121,0
Yakkabog‘	105,7	108,9